| | |
|---|---|
| | 2. Ergashev E.I., Bakiva I., Fayziyev Sh., Shermuxamedov B. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot: Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya" 2019, 680 bet.<br>3. Xolmatov N., Imomova N. «Makro va mikroiqtisodiyot» fanidan o'quv qo'llanma. – T.: «Tafakkur avlodi», 2020. – 268 bet.<br>4. Salimov B.T., Mustafakulov Sh.I., Yuldashev G`.T., Sultanov B.T. "Mikroiqtisodiyot". Masalalar to`plami. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil. – 206 bet.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>3. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)<br>4. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)<br>5. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)<br>6. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)<br>7. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)<br>8. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi) |
| 7. | Mazkur o'quv dasturi universitet o`quv-uslubiy Kengashining 2024 yil "26" - iyundagi "11" - sonli yig`ilish Qarori bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>O.A.Abdug'aniyev ____________ TerDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.d., professor<br>B.E.Turayev ____________ TerDU, "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori.<br>E.X.Xurramov ____________ TerDU, "Iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi.<br>R.A. Xurramov ____________ TerDU, "Iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>A.A.Avliyaqulov – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, i.f.n.<br>S.T.Toshaliyeva – "Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi va ekonometrika" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori. |



2- kurs

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
prof. R.N.To'rayev
2024-yil "26" iyun

Ro'yxatga olindi: № BD-61010400-1.12
2024-yil "26" iyun

# MIKROIQTISODIYOT

## FANINING

## O'QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 1000 000 | – Xizmatlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 1010 000 | – Xizmat ko'rsatish sohasi |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 61010400 | – Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) |

Termiz - 2024

| Fan/modul kodi MIK1206 | | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 3 | ECTS – Kreditlar 6 |
|---|---|---|---|---|
| Fan/ modul turi Majburiy | | Ta'lim tili o'zbek | Haftadagi dars soatlari 5 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg`ulotlari (soat) | Mustaqil ta`lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Mikroiqtisodiyot | 72 | 108 | 180 |

2\.

**I. Fanning mazmuni**

Mikroiqtisodiyot fani 18 ta mavzudan iborat bo'lib, mazkur mavzular uy xo'jaliklari, korxonalar, bozor xo'jaligi va tarmoqlar iqtisodiyotiga doir eng zarur tushunchalarni va iqtisodiy holatlar tahlilini o'z ichiga oladi.

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda milliy iqtisodiyotning sub'ektlari: firmalar, iste'molchilar hamda bozorlar faoliyati va ularning qaror qabul qilishi, mikroiqtisodiy nazariyasi, mikroiqtisodiy tahlil va davlatning mikroiqtisodiy siyosati to'g'risida talabalarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** - mikroiqtisodiy kategoriyalar, bozor muvozanati, talab va taklif elastikligi, narx ustidan nazorat va bozor faoliyati, iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va bozorlar samaradorligi, iste'molchi tanlovi nazariyasi, bozor va tavakkalchilik, ishlab chiqarish nazariyasi, ishlab chiqarish xarajatlari, raqobatlashgan bozorlardagi firmalar, monopol bozorlarda firmaning qaror qabul qilishi, ijtimoiy ne'matlar va umumiy resurslar; mikroiqtisodiy muammolarning namoyon bo'lish shartlari va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni mikroiqtisodiy modellar orqali tahlil qilish, mikroiqtisodiy siyosat maqsadlari, ochiq iqtisodiyot sharoitida mikroiqtisodiy siyosatni yuritish xususiyatlari to'g'risida nazariy bilimlarni o'zlashtirish, mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, mikroiqtisodiy konsepsiya va modellardan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, mikroiqtisodiy siyosat natijalarini bashorat qilish usullarini o'rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. "Mikroiqtisodiyot" faniga kirish.**

Fanning mazmuni, vazifalari, predmeti. Resurslarning cheklanganligi va iqtisodiyotning bosh masalasi. Cheklangan resurslarni taqsimlashni taxlil qilishda talab va taklif modelidan va toarlar aylanmasi modelidan foydalanish. Resurslarni taqsimlashda narxning ahamiyati. Muvozanat narxning shakllanishi. Bozor va uning vazifasi. Bozor bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat. Mulkka egalik qilish. Bozor iqtisodiyotining asosiy shartlari. Transaksion xarajatlar. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturidan o'rin olgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni



yechishda "Mikroiqtisodiyot" fanining ahamiyati. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotni jadal rivojlantirishdagi roli. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.

**2-mavzu. Talab va taklif tahlili asoslari.**

Talab tushunchasi. Talab chizig'i. Talab funksiyasi. Bir omilli va ko'p omilli talab funksiyalari. Talabga ta'sir qiluvchi omillar. Talab miqdorining o'zgarishi. Talabning o'zgarishi. Taklif va taklif. Taklif chizig'i. Taklif funksiyasi. Iste'molchilar talabining pasayishi va unga sabab bo'layotgan omillar. Bir omilli va ko'p omilli taklif funksiyalari. Taklifga ta'sir qiluvchi omillar. Taklif miqdorining o'zgarishi. Taklifning o'zgarishi. Talab va taklif qonunlari.

**3-mavzu. Bozor muvozanati, maksimal va minimal narxlar.**

Muvozanatlik tushunchasi. Bozor muvozanati. Muvozanat narx. Muvozanat mahsulot miqdori. Muvozanat nuqta. Bozorning muvozanat holatini qayta tiklash xususiyati. Bozor muvozanatining o'zgarishi va unga ta'sir qiluvchi omillar. Maksimal narx. Davlat tomonidan maksimal narxning o'rnatilishi. Bozorda tovar tanqisligi. Tanqislik sohasi. Norasmiy bozor va uning vujudga kelishi. Tovarning norasmiy bozordagi narxi. Minimal narx. Davlat tomonidan minimal narxning o'rnatilishi. Bozorda tovar ortiqchaligi va norasmiy bozor. Iste'molchi yutug'i va ishlab chiqaruvchi yutug'i. Tovar tanqisligi sohasi. Ortiqcha mahsulotni ifodalovchi soha. Minimal ish xaqi va uning oqibatlari taxlili.

**4-mavzu. Talab va taklif elastikligi.**

Elastiklik tushunchasi. Elastiklik koeffisiyenti. Talabni narxga ko'ra elastikligi. Talab va taklif funksiyasi uchun elastiklik koeffisiyentini hisoblash. Yoysimon elastiklik. Elastik va elastik bo'lmagan talab. Absolyut elastik va absolyut elastik bo'lmagan talab. Talab elastikligiga ta'sir qiluvchi omillar. Talabning iste'molchi daromadiga ko'ra elastikligi. Kesishgan talab elastikligi koeffisiyentini hisoblash. Normal tovarlar. Past kategoriyali, oliy kategoriyali va birlamchi ehtiyoj tovarlar. Taklif elastikligi. Engel chiziqlari. Elastiklik nazariyasining amalda qo'llanilishi. Sotuvchi daromadini talab elastikligiga ko'ra tahlil qilish. Soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosatining mazmun-mohiyati. Soliq yukini elastiklik nazariyasiga ko'ra taqsimlanishini tahlil qilish. Bozor sharoiti o'zgarishi oqibatlarini prognoz qilish va baholash.

**5-mavzu. Iste'molchi tanlovi nazariyasi.**

Iste'mol nazariyasida ne'mat tushunchasi. Iste'molchi tanloviga ta'sir qiluvchi omillar. Naflik tushunchasi. Iste'molchi ehtiyojini qondirish darajasi. Naflik funksiyasi. Umumiy naflik, chekli naflik, chekli naflikning kamayishi qonuni. Befarqlik egri chizig'i. Befarqlik chiziqlari kartasi va uning

xususiyatlari. Chekli almashtirish normasi. Byudjet chegarasi va uning o‘zgarishi. Byudjet tenglamasi. Byudjet chizig‘i. Byudjet chizig‘i yotiqlik burchagi. Iste’molchi tanlovi masalasi. Naflikni maksimallashtirish. Iste’molchi tanlovi masalasi yechilishini grafik usulda tahlil qilish. Iste’molchi muvozanati. Iste’molchilarning muvozanatlik shartlari.

**6-mavzu. Daromad samarasi va almashtirish samarasi.**

«Daromad-iste’mol» chizig‘i va uning xususiyatlari. Normal va past kategoriyali tovarlar uchun Engel chiziklari. «Narx-iste’mol» chizig‘i va Narx-iste’mol» chizig‘iga ko‘ra talab chizig‘ini aniqlash. Normal va Giffen tovarlari uchun daromad va almashtirish samarasi, umumiy samara. Past kategoriyali tovarlar uchun daromad samarasi va almashtirish samarasi. Almashtirish samarasini va daromad samarasini amalda qo‘llash. Bozor talabi va talablarni qo‘shish.

**7-mavzu. Bozor va tavakkalchilik.**

Noaniqlik va tavakkalchilik. Ehtimol tushunchasi. Ehtimolning turlari. Noaniqlik sharoitida tanlash. Tavakkalchilikni vujudga kelishi sabablari. Tavakkalchilik o‘lchovi. Kutiladigan miqdor. Chetlanish. Tavakkalchilikka bo‘lgan munosabat. Tavakkalchilikka moyillik. Tavakkalchilikka moyil bo‘lmagan holat. Tavakkalchilikka befarqlik. Tavakkalchilikni pasaytirish yo‘llari. Korxonalarning faoliyat sohalarini va ishlab chiqaradigan mahsulotlar turini kengaytirish (diversifikatsiyasi). Tavakkalchilikni pasaytirishda diversifikatsiyaning o‘rni va ahamiyati. Sug‘urta qilish. Tavakkalchilikni qo‘shish. Tavakkalchilikni taqsimlash. Asimmetrik axborotlashgan bozor. Mahsulot sifati noaniqligi. Ma’naviy tavakkalchilik. Bozordagi asimmetrik axborotlarni yo‘qotish yo‘llari. Bozor signallari. Auksionlar. Olib sotarlik va uni iqtisodiyotdagi o‘rni. Fyucherslar. Opsion va xedjirlashtirish. Investitsiya va tavakkalchilik. Tavakkalchilik aktivlariga bo‘lgan talab. Aktivlar tushunchasi va ulardan olinadigan foyda. Tavakkalchilik va foydaning o‘zaro aloqasi. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida mablag‘ egasining o‘z mablag‘ini sarflash yo‘nalishini tanlash muammosi.

**8-mavzu. Firma va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.**

Firma tushunchasi. Tadbirkorlik firmalarining asosiy shakllari. Xususiy firmalar. Xususiy firmaning ustun va zaif tomonlari. Mas’uliyati cheklangan va cheklanmagan jamiyatlar. Aksionerlik jamiyatlari (korporatsiyalar, ochiq va yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari). Jamiyatning javobgarligi. Aksionerlik jamiyatining ustun tomonlari va zaif tomonlari. Aksiyadorlarning huquqlari. Davlat korxonalari. Foyda olmaydigan tashkilotlar. Kooperativlar. O‘zbekiston Respublikasida «Mulk to‘g‘risidagi» Qonunga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar turlari.



**9-mavzu. Ishlab chiqarish nazariyasi.**

Ishlab chiqarish jarayoni. Ishlab chiqarish texnologiyasi. Ishlab chiqarish omillari va ularning turlari. Ishlab chiqarish funksiyasi, bir omilli va ko‘p omilli ishlab chiqarish funksiyalari. Izokvanta tushunchasi. Izokvantalar kartasi va uning xususiyatlari. Izokvantaning yotiqligi burchagi. Qisqa va uzoq muddatlardagi ishlab chiqarish. O‘zgaruvchan omilning yalpi, o‘rtacha, chekli mahsulotlari va ular o‘rtasidagi bog‘liqlik. Kapitalning chekli mahsuloti. Mehnatning chekli mahsuloti. Yetakchi tarmoq va sohalarda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning asosiy yo‘llari. Ishlab chiqarish omillarining chekli mahsuldorligini kamayish qonuni. Ishlab chiqarish omillarining o‘zaro almashuvi. Chekli texnologik almashtirish normasi. Izokosta tushunchasi. Izokosta tenglamasi. Ishlab chiqarish omillari cheklangan sharoitda mahsulot ishlab chiqarishni maksimallashtirish masalasining qo‘yilishi. Maksimallashtirish masalasini grafik usuldagi yechimi va optimallik sharti. Ishlab chiqaruvchi muvozanati. Masshtab samarasi.

**10-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari.**

Korxonaning qisqa muddatli va uzoq muddatli oraliqdagi faoliyati. Xarajatlar to‘g‘risida tushuncha. Boy berilgan imkoniyatlar va alternativ xarajatlar. Qaytarilmaydigan xarajatlar. Iqtisodiy xarajatlar, buxgalteriya xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlar. Iqtisodiy foyda va normal foyda. Yalpi xarajatlar. O‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlar. O‘rtacha xarajatlar. Chekli xarajatlar. Ishlab chiqarish xarajatlari chiziqlari. Uzoq va qisqa muddatlardagi xarajatlar grafiklari. Qisqa va uzoq muddatdagi xarajatlarning o‘zaro bog‘liqligi. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash, O‘rtacha ishlab chiqarish va chekli xarajatlar grafiklarining o‘zaro joylashuvi. Ishlab chiqarish xarajatlari funksiyasi va uning xususiyati. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish yo‘llari.

**11-mavzu. Firma foydasini maksimallashtirish.**

Mukammal raqobatlashgan bozor va uning shartlari. Raqobatlashuvchi firmaning, yalpi, o‘rtacha va chekli daromadlari. Korxona foydasi. Korxona foydasini maksimallashtirishni nazariy jihatdan asoslash va uni grafik usulda tahlil qilish. Firma foydasini maksimallashtirishning umumiy optimallik sharti va mukammal raqobatlashgan bozor uchun optimallik sharti. Firmaning zararsiz ishlash nuqtasi. Firma xarajatlarini minimallashtiradigan holat. Firmaning yopilish nuqtasi. Firmaning chekli mahsulot ishlab chiqarish qoidasiga amal qilishi. Firma taklifi.

**12-mavzu. Raqobatlashuvchi firma va tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi muvozanati.**

O‘rtacha uzoq muddatli xarajat va uning xususiyatlari. Uzoq muddatli oraliqda ishlab chiqarish hajmini tanlash. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning mohiyati va zarurati. Tarmoqqa qarashli tipik firma muvozanati. Tarmoqning muvozanat holati. Tarmoqning taklifi. Xarajatlari

o'sayotgan tarmoqning taklif chizig'i, xarajatlari o'zgarmas bo'lganda tarmoqning taklif chizig'i. Xarajatlari kamayayotgan tarmoqning taklif chizig'i. Tarmoqning kengayish mexanizmi. Firmaning samarali razmeri. Ishlab chiqarish masshtabi. Musbat samarali ishlab chiqarish masshtabi. Manfiy samarali ishlab chiqarish masshtabi. O'zgarmas samarali ishlab chiqarish masshtabi. Firmaning uzoq muddatli o'rtacha xarajatining kamayishiga va o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar.

**13-mavzu. Raqobat va yakkahokimlik.**

Raqobat tushunchasi. Raqobatlashuvchi firmalar. Raqobatlashmagan bozor turlari. Sof monopoliya. Sof monopoliyaga misollar. Monopolistik bozorga kirishdagi to'siqlar. Tabiiy monopoliyalar. Sof monopoliyada monopol narx va monopol mahsulotni aniqlash. Monopolistik talab va taklif. Monopol hokimiyat va monopol hokimiyat ko'rsatkichlari. Monopol narx belgilashda talab elastikligining ta'siri. Monopol narx va jamiyat farovonligi. Monopol narxga soliqlarning ta'siri. Raqobatlashgan monopol bozor. Raqobatlashgan monopol bozorda tovar narxi va ishlab chiqarish hajmini aniqlash. Raqobatlashgan monopol bozor samaradorligi. Oligopoliya va uning xususiyatlari. Kurno modeli. Monopsoniya. Monopoliyaga qarshi qonun.

**14-mavzu. Bozor hokimiyati sharoitida narx belgilash tamoyillari.**

Narx tushunchasi, tamoyillari va funksiyalari. Bozor sharoitida amal qiluvchi narx turlari. Narx belgilashda iste'molchi ortiqchaligini egallash. Monopol narx belgilashda «Bosh barmoq» qoidasi. Monopol hokimiyat va jamiyat farovonligi. Iste'molchilar daromadiga ko'ra narxlarni belgilash. Mahsulotlarni xarid qilish uchun qo'shimcha iste'molchilarni jalb qilish. Turli xaridorlar uchun turli narxlar belgilash (narxlar diversifikatsiyasi). Iste'mol hajmiga ko'ra narxlar diversifikatsiyasi. Tovarlar kategoriyasiga ko'ra narx differensiatsiyasi. Mahsulotlarga bo'lgan yuqori talab davrida narx belgilash tartibi.

**15-mavzu. Mehnat bozori va korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanish.**

Bozor munosabatlari va mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari. Respublikada mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini ta'minlash va uning ko'lamini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar. Yollanma ishchilarning optimal sonini aniqlash. Mehnatning chekli mahsuloti. Mehnatning chekli daromadliligi. Mehnat qaytimi. Mehnat sig'imi. Mehnat samaradorligi. Mehnat unumdorligining kamayish qonuni. Mehnat resurslariga bo'lgan talab. Mehnat resurslari taklifi. Raqobatlashgan mehnat bozori va mehnat bozori muvozanati. Mehnat qilish va dam olish o'rtasidagi bog'liqlik. Ish haqi o'sishining dam olish vaqti bilan ishlash vaqti o'rtasidagi nisbatga ta'siri. Mehnat bozorida monopsoniya bo'lgan hol. Ish haqi minimumi. Minimal ish haqi va muvozanat ish haqi o'rtasidagi farqlar va ularning oqibatlari. Mehnat bozoriga kasaba uyushmalarining ta'siri. Monopoliya



shaklidagi mehnat bozori. Mehnat bozorida ikki tomonlama monopoliya. Ish haqi stavkalarining tabaqalashuvi. Iqtisodiy renta. Korxonada mehnatni tashkil etishning ilg'or shakllari. Ish haqi va mehnat unumdorligi. Axoli daromadlari. Daromadlarni tabaqalanishi. Axoli daromadlari tabaqalanishini Djini koeffisenti bo'yicha baholash.

**16-mavzu. Kapital qo'yilmalar va kapital bozori.**

Asosiy va aylanma kapital mablag'lar. Ssuda foizi. Loyiha tushunchasi. Mamlakatni modernizatsiya qilishda investitsiyalar va ularning ahamiyati. Yalpi investitsiyalash. Investitsiyani qoplash. Sof investitsiya tushunchasi. Chekli sof qoplash. Chekli ichki qoplash. Chekli qoplash normasi koeffitsiyenti. Uzoq muddatli oraliqdagi investitsiya. Jamg'arma va vaqt bo'yicha chekli tanlash normasi. Qiymatni diskontlash. Investitsiyani hisoblashdagi diskonlangan qiymat. Investitsiyaga talab. Investitsiyaga inflyatsiyaning ta'siri. Asosiy fondlarning joriy xarajatlarini va istiqboldagi daromadini baholash. Kapital bozori. Hududiy investitsiya dasturlariga kirgan loyihalar va ularni moliyalashtirish manbalari. Ziyon miqdorini aniqlash. Ichki va tashqi investitsiya. Korxonaning investitsiya sohasidagi qaror qabul qilish mezoni. Investitsiya samaradorligi. Obligatsiya qiymati va undan keladigan daromad. Muddatsiz obligatsiya. Yer bozori, yer taklifi, yer rentasi. Absolyut renta. Differensial renta. Yer narxi.

**17-mavzu. Korxonalar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish.**

Tranzaksion xarajatlar. Bozor munosabatining kamchiliklari. Bozor muvozanatining buzilish oqibatlari. Davlatning bozorga samarali aralashuvi. Kouz teoremasi. Tashqi samara. Manfiy tashqi samara va musbat tashqi samara. Davlatni atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati. Ijtimoiy ne'mat. Asimmetrik axborotlarni tartibga solish. Bozor ojizligi. Ijobiy va salbiy tashqi samaraga ta'sir ko'rsatish: tartiblashtiradigan soliq, tartiblashtiruvchi subsidiya. Chiqindilarga norma va standartlar o'rnatish. Tabiiy muhitni zararlash huquqini sotish. Soliqlar, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar. Imtiyozli soliqlar. Bozor mexanizmiga davlatning aralashuvi me'yori.

**18-mavzu. Davlatning bozorga ta'sirini baholash.**

Iste'molchi ortiqchaligi. Umumiy iste'molchi ortiqchaligini grafikda aniqlash. Ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi. Ishlab chiqaruvchi ortiqchaligining grafikdagi tasviri. Narx davlat tomonidan nazorat qilinganda iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligining grafikdagi tasviri. Minimal narx o'rnatilishi natijasidagi yo'qotishlar grafigi. Barqaror narxlarni ushlab turish. Ishlab chiqarishni cheklash (ishlab chiqarish kvotasi). Soliqni qisqa va uzoq muddatli ta'siri. Raqobatlashuvchi firmaning ishlab chiqarish hajmiga soliqning ta'siri. Soliqni tarmoq ishlab chiqarish hajmiga ta'siri. Raqobatlashgan bozor samaradorligi. Raqobatlashgan firmaning uzoq muddatli oraliqdagi muvozanat holati.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. "Mikroiqtisodiyot" faniga kirish.
2. Talab va taklif tahlili asoslari.
3. Bozor muvozanati, maksimal va minimal narxlar.
4. Talab va taklif elastikligi.
5. Iste'molchi tanlovi nazariyasi.
6. Daromad samarasi va almashtirish samarasi.
7. Bozor va tavakkalchilik.
8. Firma va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.
9. Ishlab chiqarish nazariyasi.
10. Ishlab chiqarish xarajatlari.
11. Firma foydasini maksimallashtirish.
12. Raqobatlashuvchi firma va tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi muvozanati.
13. Raqobat va yakkahokimlik.
14. Bozor hokimiyati sharoitida narx belgilash tamoyillari.
15. Mehnat bozori va korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanish.
16. Kapital qo'yilmalar va kapital bozori.
17. Korxonalar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish.
18. Davlatning bozorga ta'sirini baholash.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:*

1. Bozor iqtisodiyotida talab va taklifning ahamiyati. Xususiy talab va bozor talabi.
2. Ishlab chiqarish xarajatlari.
3. Aholi daromadlari.
4. Elastiklik koffitsienti yordamida bozor talabini baholash.
5. Naflik va chekli naflik, chekli naflikni kamayish qonuni.
6. Ishlab chiqarish hajmi samarasiga ko'ra firmaning optimal o'lchamini aniqlash.
7. Ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish omillarining chekli mahsudorligining kamayish qonuni.
8. Firma foydasini aniqlash va uni maksimallashtirish
9. Raqobatlashgan monopol bozor, ustun jihatlari va kamchiliklari.
10. Iste'molchining bozordagi harakati.
11. Raqobatlashgan bozorda harakat qiluvchi firma daromadlari.



12. Raqobatlashgan bozorda firmaning muvozanati.
13. Bozor muvozanati va uning ahamiyati.
14. Budjet chegarasi va budjet chizig'i.
15. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar.
16. Raqobatlashuvchi firmaning foydasi va daromadlari.
17. Firma va tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi muvozanati.
18. Tadbirkorlik shakllari.
19. Noaniqlik va tavakkalchilik.
20. Daromad samarasi va almashtirish samarasi
21. Pozitiv va normativ mikroiqtisodiyot.
22. Mikroiqtisodiy modellar.
23. Bir omilli va ko'p omilli taklif funksiyalari.
24. Talab va taklif qonunlari.
25. Miqdorga ko'ra bozorning muvozanatini ta'minlash modeli (Valras modeli, Marshall modeli, to'rsimon model)
26. Bozorning muvozanatli holatini tanlash yo'llari.
27. Elastiklik nazariyasining amalda qo'llanilishi.
28. Minimal oylik maosh.
29. Soliq yukining taqsimlanishini tahlil qilish.
30. Iste'molchilarning ortiqchaligi.
31. Ishlab chiqaruvchilar ortiqchaligi.
32. Maksimal narxlar va ishlab chiqaruvchilar ortiqchaligi.
33. Bozor samaradorligi va bozor kamchiliklari.
34. Naflik funksiyasi
35. Befarqlik egri chiziqlari xaritasi va uning xususiyatlari
36. Normal tovarlar. Past toifali, oliy toifali va birlamchi ehtiyoj tovarlar.
37. Engel egri chiziqlari.
38. Normal va Giffen tovarlari uchun talab chizig'i.
39. Normal tovar uchun daromad samarasi va almashtirish samarasi, umumiy samara.
40. Past toifali tovarlar uchun daromad samarasi va almashtirish samarasi.
41. Tavakkalchilikni pasaytirish yo'llari.
42. Assimetrik axborotlashgan bozor.
43. Auksionlar.
44. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro almashuvi.
45. Izokosta tushunchasi. Izokosta tenglamasi.
46. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrdagi xarajatlar.
47. Firma foydasi.
48. Monopol bozorlarda narxlar

| | |
|---|---|
| | 49. Monopoliyada foydani maksimallashtirish<br>50. Narx diskriminatsiyasi.<br>51. Monopoliyaga qarshi qonunchilik<br>52. Davlatning monopoliyalarga qarshi siyoati: Sherman qonuni, Kleyton qonuni<br>53. Monopolistik raqobat va jamiyat farovonligi.<br>54. Qisqa muddatli davrdagi monopolistik raqobatdosh korxona<br>55. Monopolistik raqobat bozori samaradorligi<br>56. Asosiy va aylanma kapital mablag'lari.<br>57. Ssuda foizi<br>58. Yer bozori, yer taklifi, yer rentasi.<br>59. Ijobiy tashqi ta'sirlar<br>60. Salbiy tashqi ta'sirlar<br>61. Kouz teoremasi<br>62. Operatsion xarajatlar.<br>63. Ijtimoiy ne'matlar<br>64. Ish haqi stavkalarining tabaqalashuvi<br>65. Umumiy naflik, chekli naflik, chekli naflikning kamayish qonuni.<br>66. Byudjet tenglamasi. Byudjet chizig'i.<br>67. Naflikni maksimallashtirish.<br>68. Ehtimollik tushunchasi. Ehtimolning turlari.<br>69. Tavakkalchilikni taqsimlash.<br>70. Ishlab chiqarish omillari chekli mahsuldorligining kamayish qonuni.<br>71. Ishlab chiqarish omillari sarfini minimallashtirish.<br>72. Talab elastikligi turlari<br>73. Taklif elastikligi turlari<br>74. Kurno muvozanati<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• zamonaviy bozor iqtisodiyotining ishlashi va rivojlanishining nazariy asoslarini; talab va taklif modeli asosida taqchil resurslarning taqsimlanish mexanizmini; raqobatlashgan va raqobatlashmagan bozorlarning asosiy xususiyatlari va firmalarning ushbu bozordagi harakat qilish qoidalari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***<br>• ishlab chiqarish nazariyasi haqida, iste'molchi tanlovi nazariyasi haqida, izokvanta va izokosta tushunchalari haqida, raqobatlashgan bozor haqida, bozor muvozanati haqida ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***<br>• talaba bozordagi talab va taklif to'g'risidagi statistik ma'lumotlar asosida bozorni tahlil qilish va xulosalar chiqarish; statistik ma'lumotlar asosida talab va taklif funksiyalarini tuzish va ular asosida bozordagi holatni tahlil va prognoz qilish bo'yicha ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;<br>• esse, tezis va maqolalar yozish;<br>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;<br>• blis-so'rov;<br>• jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;<br>• muhokamalarda ishtirok etish;<br>• kichik guruhlarda ishlash;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyiha ishi bajarish;<br>• taqdimot tayyorlash;<br>• turli darajadagi testlarni yechish. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha testni topshirish hamda talaba mustaqil ta'limi topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etib borishi lozim. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019, - 366 b. (Ushbu kitobdan 1 nusxa kitob shakli ARMda mavjud)<br>2. Egamberdiyev E. Mikroiqtisodiyot. Darslik. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2005. - 304 b. (Ushbu kitobdan 2 nusxa kitob shakli ARMda mavjud)<br>3. Хамидов О.Х., Шайкан А.В., Маманазаров А.Б. Микроэкономика: теория и практика. Дарслик. Ташкент-2021. (Ushbu kitobdan 1 nusxa kitob shakli ARMda mavjud)<br>4. Bakieva I.A., Xadjaev X.S., Muhitdinova M.Z., Fayziyev SH.SH. Mikroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma. - T.: TMI, 2017, 437 bet. (Ushbu kitobdan 3 nusxa kitob shakli ARMda mavjud)<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Shakarov A.B., Xolboyev U.X. Mikroiqtisodiyot: darslik – T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. - 228 b. |

| | |
|---|---|
| | 2. Ergashev E.I., Bakiva I., Fayziyev Sh., Shermuxamedov B. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot: Darslik. - T.: “Iqtisod-Moliya” 2019, 680 bet.<br>3. Xolmatov N., Imomova N. «Makro va mikroiqtisodiyot» fanidan o’quv qo’llanma. – T.: «Tafakkur avlodi», 2020. – 268 bet.<br>4. Salimov B.T., Mustafakulov Sh.I., Yuldashev G`.T., Sultanov B.T. “Mikroiqtisodiyot”. Masalalar to`plami. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil. – 206 bet.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. www.gov.uz - O’zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>2. www.lex.uz - O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.<br>3. www.mineconomy.uz (O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)<br>4. www.mehnat.uz (O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)<br>5. www.mf.uz (O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)<br>6. www.stat.uz (O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi)<br>7. www.ima.uz (O’zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)<br>8. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi) |
| **7.** | Mazkur o’quv dasturi universitet o`quv-uslubiy Kengashining 2024 yil “26” - iyundagi “11” - sonli yig`ilish Qarori bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>O.A.Abdug’aniyev ___________ TerDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.d., professor<br>B.E.Turayev ___________ TerDU, “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori.<br>E.X.Xurramov ___________ TerDU, “Iqtisodiyot” kafedrasi o’qituvchisi.<br>R.A. Xurramov ___________ TerDU, “Iqtisodiyot” kafedrasi o’qituvchisi. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>A.A.Avliyaqulov – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.<br>S.T.Toshaliyeva – “Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi va ekonometrika” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori. |